



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 04 | pp. 20-25 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MAJBURIYATLAR HISOBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



**Uzoqova Feruza Baraka qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Maskur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Mavzuga taaluqli bo'lgan xalqaro buxgalteriya hisobiga oid normativ hujjatlar, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning izlanishlari tadqiq etilib xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini takmillashtirish yo'lari bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** majburiyat, moliyaviy hisobot, joriy majburiyat, moliyaviy majburiyat, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartari (MHXS), Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS).

**Аннотация:** В данной статье раскрыты особенности учета обязательств в хозяйствующих субъектах. Изучены нормативные документы, относящиеся к международному бухгалтерскому учету, а также исследования экономистов по данной теме. Кроме того, разработаны выводы и предложения по совершенствованию учета обязательств в хозяйствующих субъектах.

**Ключевые слова:** обязательство. Финансовая отчетность, текущее обязательство, финансовое обязательство, Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), Международные стандарты бухгалтерского учета (МСБУ)

**Annotation:** This article explores the peculiarities of liability accounting in business entities. Relevant international accounting regulations and economists' research on the topic have been analyzed. Additionally, conclusions and recommendations for improving liability accounting in business entities have been developed.

**Key words:** liability, financial statements, current liability, financial liability, International Financial Reporting Standards (IFRS), International Accounting Standards (IAS).

#### KIRISH

Ma'lumki, yurtimizda 2021 yil 1 yanvardan boshlab Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va 2021 yil yakunlaridan boshlab, moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash qonun bilan belgilab qo'yilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini tubdan oshirish, bo'lajak investorlar uchun ularning ochiqligi va jozibadorligini ta'minlash, zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlar rolini kuchaytirish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iboratdir[1,2].

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini to'g'ri tashkil etish nihoyatda dolzarb bo'lib hisoblanadi. Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, to'lov qobiliyatini oshirish va investorlar hamda kreditorlar ishonchini qozonishda muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda majburiyatlar hisobining xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Ilmiy tadqiqotlar natijasida majburiyatlar hisobiga oid qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning takomillashtirilishiga hizmat qiladi. Bu esa hisob siyosatining yanada samarali yuritilishiga zamin yaratadi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizning taniqli iqtisodchi olimlari hisoblangan Sh.T.Ergasheva, N.K.Rizayev, A.K.Ibragimov, S.N.Tashnazarov, S.Maxmudov, A.Kozimjonov va boshqalar tomonidan ilmiy ishlarida xalqaro standartlarga muvofiq pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotni tuzishni takomillashtirishning uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etilganlar[3,4].

D.I.Shaulov va U.T.Kanlar fikricha, "Majburiyatlar - hisobot yili yoki undan oldingi davrlarda yuzaga kelgan, uni so'ndirish iqtisodiy nafni kamaytirishga olib kelishi haqidagi ishonch mavjud bo'lgan kreditorlik qarzi yoki boshqa hil qarzdor" [5].

Yana bir iqtisodchi olim S.Maxmudovning fikricha – «majburiyat bir korxonaning ikkinchisiga bo'lgan qarzdorligini ko'rsatuvchi, ularning so'ndirilishi esa qarzdor korxonaning aktivlarini kamaytiruvchi, oldindan yuz bergan xo'jalik muomalalarining natijasidir» . Ushbu yondashuvda muallif bir korxonaning boshqa korxonaga bo'lgan qarzi nuqtai nazardan yondashgan [6].

Iqtisodchi olim A.Kozimjonovning fikricha, «Majburiyat bu - xo'jalik yurituvchi subyektning o'tgan davr va amaldagi faoliyati natijasida vujudga kelgan javobgarlik bo'lib, javobgarlikni bajarilishi oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektning foyda keltirishi mumkin bo'lgan iqtisodiy resurslarini boshqa korxonalarga berib yuborilishi tushuniladi» [7].

Muallif fikricha, Majburiyat — bu xo'jalik yurituvchi subyektning o'tmishdagi voqealar natijasida yuzaga kelgan, belgilangan muddat ichida bajarilishi lozim bo'lgan va kelajakda iqtisodiy foyda keltiruvchi resurslarning chiqib ketishiga olib kelishi kutilayotgan hozirgi majburiyati hisoblanadi. Ushbu ta'rifda vaqt omili "belgilangan muddat ichida" iborasi orqali aks ettirilgan bo'lib, bu majburiyatning bajarilishi uchun aniq vaqt chegaralari mavjudligini ko'rsatadi. Majburiyatlarning vaqt bo'yicha tasnifi moliyaviy hisobotlarda korxonaning to'lov qobiliyati va likvidligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bu investorlar va kreditorlarga korxonaning moliyaviy holatini to'g'ri tushunishga yordam beradi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini tashkil qilish va bajarish jarayonida buxgalteriya hisobi usullari asosida ekspertlar baxosi, qiyosiy tahlil, kontent va invent tahlil, tizimli va omilli tahlil kabi usullaridan foydalanildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini yuritish va uni takomillashtirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Majburiyatlarning to'g'ri hisobga olinishi korxonaning moliyaviy holatini aniq aks ettirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investorlar hamda kreditorlar ishonchini qozonishda muhim rol o'ynaydi.

Birinchidan, moliyaviy axborotning ishonchliligi nuqtai nazardan: Majburiyatlarning aniq va to'g'ri hisobga olinishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi, bu esa manfaatdor tomonlarning qaror qabul qilish jarayonida muhimdir.

Ikkinchidan, Xalqaro standartlarga moslashish nuqtai nazardan: O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda majburiyatlar hisobining xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir.

Majburiyatlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarida muhim tarkibiy qism bo'lib, ular subyekt tomonidan o'z zimmasiga olgan va kelajakda iqtisodiy foyda keltiruvchi resurslarning chiqib ketishiga olib kelishi kutilayotgan hozirgi majburiyatlarini aks ettiradi. Majburiyatlar quyidagi asosiy turlarga bo'linadi:



### 1-rasm. Majburiyatlarning turlari<sup>1</sup>.

Majburiyatlarning to'g'ri tasnifi va hisobga olinishi xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatini aniq aks ettirish, likvidlik va to'lov qobiliyatini baholash uchun muhimdir. Bu esa investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Shuningdek majburiyatlar hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashkil etishda, majburiyatlar hisobi bilan bog'liq normativ-huquqiy asoslar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini qonuniy va shaffof yuritish uchun zarur bo'lgan qoidalar va standartlarni belgilaydi. Ular milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqilib, iqtisodiy o'zgarishlarga mos ravishda yangilanadi. Bu asoslar majburiyatlarning to'g'ri tasnifi va baholashini ta'minlab, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi hamda nazorat va javobgarlik mexanizmlarini belgilaydi. Natijada, korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishib, iqtisodiy munosabatlarda ishonchli hamkor sifatida faoliyat yuritishlari mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlar hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar quyidagi hujjatlardan iborat:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun: Ushbu qonun buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari, subyektlari va obyektlarini belgilaydi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish tartibini o'rnatadi.


2. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS): O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan ushbu standartlar buxgalteriya hisobining milliy standartlarini belgilaydi.

3. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS): O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonida ushbu standartlardan foydalanadi.

Shuningdek, majburiyatlar hisobini yuritishda quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi: Bu kodeks soliqqa tortish bilan bog'liq majburiyatlarni hisobga olish tartibini belgilaydi.

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi: Ushbu kodeks xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlari va shartnomaviy munosabatlarini tartibga soladi.



## 2-rasm. Majburiyatlar hisobini tartibga solib turuvchi asosiy normativ-huquqiy xujjatlar<sup>2</sup>

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar majburiyatlar hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda asosiy yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

MHXS va BHMS o'rtasida majburiyatlarning hisobga olinishi va hisobotda aks ettirilishida muayyan farqlar mavjud. MHXS xalqaro miqyosda qo'llaniladigan standartlar bo'lib, moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligini ta'minlaydi. Shu sababli, majburiyatlarning hisobga olinishi va hisobotda aks ettirilishi bo'yicha MHXS va BHMS o'rtasida ayrim tafovutlar mavjud bo'lishi mumkin. Xo'jalik yurituvchi subyektlar ushbu farqlarni inobatga olgan holda, o'z faoliyatida tegishli standartlarga rioya qilishlari lozim.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Majburiyatlar hisobini to'g'ri tashkil etish va takomillashtirish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, xalqaro standartlarga mosligi va qonunchilik talablariga javob berishi uchun muhimdir. Bu esa, korxonaning uzoq muddatli muvaffaqiyati va rivojlanishiga imkon yaratadi. Shu bois, xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar beriladi:

➤ majburiyatlar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

➤ buxgalteriya hisobi jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali hisob jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish.

➤ majburiyatlar hisobini yuritishda ishtirok etuvchi mutaxassislarining malakasini muntazam ravishda oshirib borish, ularni yangi standartlar va texnologiyalar bilan tanishtirish.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarni amalga oshirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarda majburiyatlar hisobini takomillashtirish va moliyaviy axborotning ishonchliligini oshirish mumkin bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmon (<https://lex.uz/uz/docs/5841063>).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori (<https://lex.uz/ru/docs/4746047>).

3. Ergasheva Sh.T., Ibragimov A.K., Rizayev N.K., Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2019. – 227 b.

4. Tashnazarov S.N va boshqalar (2018) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. – Samarkand: SamISI, – 421 b.

5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'plami. // ASSA . IFRS/IAS., 2019 y.

6. S.Maxmudov Aksiyadorlik jamiyatlarida majburiyatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt.fan.nom. dis. ...avtoref. – Toshkent: 2006. -22 b.

7. Kozimjonov A. Problems with Accounting of Borrowing Costs Capitalized in Compliance with the IFRS and the Ways to Solve them //Proceedings of the 5th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. – 2021. – C. 366-369.

8. «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos» nomli O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti. 38-band. -T.: UzbAMA, 2003. -42 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami. –T.: Adolat, 2011.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

